



O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZIB TAQDIM ETISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

TDIU «Budget hisobi va g'aznachilik» kafedrasи dotsenti

E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

ORCID: 0009-0003-5169-4233

IMPROVING THE PROCEDURE FOR PREPARING AND PRESENTING FINANCIAL REPORTS IN THE PUBLIC SECTOR OF UZBEKISTAN.

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

Associate Professor of the «Budget Accounting and Treasury» Department of TSUE

E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

ORCID: 0009-0003-5169-4233

JELClassification: L88 P23

Annotatsiya: O'zbekiston davlat sektorida moliyaviy boshqaruvini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS va IPSAS) muvofiqlashtirish va bu orqali davlat moliyaviy boshqaruving samaradorligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish masalalarini o'rghanishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. So`nggi yillarda O'zbekiston davlat sektori uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini tatbiq qilishning ilmiy asoslari, ular orqali davlat moliyaviy jarayonlarining ochiqligi va samaradorligini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Davlat sektori tashkilotlari uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish va zamонавий texnologiyalarni qo'llash orqali ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonining tezkorligi va aniqligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda orqali, davlat sektori tashkilotlarida samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy

barqarorlikni ta'minlashga erishish mumkin. Tadqiqot davomida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini tatbiq qilishda duch kelinadigan texnik va tashkilotiy qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Abstract: Particular attention is paid to the study of the issues of harmonizing financial management in the public sector of Uzbekistan with international financial reporting standards (IFRS and IPSAS) and thereby increasing the efficiency, transparency and accountability of public financial management. In recent years, there has been a need to consider the scientific basis for the implementation of international financial reporting standards for the public sector of Uzbekistan, ways to ensure the openness and efficiency of public financial processes through them. For public sector organizations, it is important to automate the process of preparing financial statements and increase the speed and accuracy of data



collection and analysis through the use of modern technologies. By improving the financial management system, ensuring the compliance of financial statements with international standards and developing international cooperation, it is possible to increase efficiency in public sector organizations, rational use of resources and ensure economic stability. The study analyzed the technical and organizational difficulties encountered in the implementation of international financial reporting standards, measures to overcome them, as well as the possibilities of applying the best practices of foreign countries in the conditions of Uzbekistan.

Kalit so`zlar: avtomatlashirilgan tizimlar, davlat sektori, moliyaviy hisobot, samaradorlik, IPSAS.

Keywords: automated systems, public sector, financial reporting, efficiency, IPSAS.

Kirish. Davlat sektori moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish va uni xalqaro talablarga muvofiqlashtirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat sektori muhim o'rinnegallaganligi sababli, davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan davlat budgeti mablag`laridan oqilona va maqsadli foydalanish maqsadida davlat sektorida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiysiylari ishlab chiqilmoqda [1]. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS va IPSAS) muvofiqlashtirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan o'zaro ishonchli munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini davlat sektori tashkilotlarida tatbiq etish orqali moliyaviy boshqaruvning aniqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish, xalqaro miqyosda

ishonchli hisobotlarni taqdim etish va davlat sektori moliyaviy faoliyatining ochiqligini ta'minlash mumkin. Shu sababli, davlat sektori moliyaviy boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish va xorijiy tajribalarni tatbiq etish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Bunda, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini davlat sektori tashkilotlariga tatbiq qilishning ilmiy asoslarini va afzalliklarini aniqlash hamda davlat sektori moliyaviy boshqaruvini xalqaro talablarga moslashtirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini ko'rib chiqib o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat budgetida moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish, shuningdek, moliyaviy axborotning to'g'riligini ta'minlash va bu axborotning ishonchliligi uchun zarur bo'lgan barcha talablarni bajarishni o'z ichiga oladi. Natijada, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish orqali davlat sektori tashkilotlarining shaffofligini va ularning faoliyati haqidagi axborotni ishonchliligini ta'minlashga erishish mumkin.

Davlat sektori hisobotlari bo'yicha xalqaro standartlarga asoslangan holda amalga oshirilayotgan islohotlarning davlat moliyaviy boshqaruvidagi ahamiyati keng yoritilgan. Shu jumladan, davlat sektori uchun IPSAS (International Public Sector Accounting Standards) joriy etilishi orqali davlat tashkilotlarining samaradorligi oshirilishi ko'zda tutiladi. Bu jarayonda davlat tashkilotlari uchun yagona hisobot va nazorat tizimi yaratilib, xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiqlik ta'milanadi. Budget tashkilotlari va davlat sektori uchun xalqaro standartlarning joriy etilishi, buxgalteriya hisobotlari orqali shaffoflik va samaradorlikni oshiradi. Bu esa davlat



sektorida amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlarning muvaffaqiyatli kechishi uchun zamin yaratadi.

Material va metod. O`zbekiston davlat sektorida moliyaviy hisobotlarni tuzib taqdim etish tartibini takomillashtirish bo`yicha xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalar va maqolalarda ham o`z aksini topgan.

Xususan Rossiyalik olimlar V.V.Kupina hamda M.V.Manichkina o`zlarining tadqiqotlarida «Davlat budgetida moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish davlat boshqaruving samaradorligini oshirishda muhim rol o`ynaydi. Moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish, shuningdek, moliyaviy axborotning to`g`rilingini ta`minlash va bu axborotning ishonchliligi uchun zarur bo`lgan barcha talablarni bajarishni o`z ichiga oladi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi davlat sektori uchun nafaqat axborotning sifatini oshirishga, balki davlat tashkilotlari uchun global miqyosda solishtirish imkonini yaratishga ham xizmat qiladi» deb ta`kidlashgan [2].

Boshqa bir Rossiyalik tadqiqotchi davlat sektorida moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish bo`yicha izlanishlari natijasida «Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish, davlat sektori tashkilotlarining shaffofligini va ularning faoliyati haqidagi axborotni ishonchliliginu ta`minlashga erishish mumkinligini hamda xalqaro tajribalar ko`rsatganidek, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish davlat tashkilotlari faoliyatini boshqarish, ularga investitsiyalar jalb qilish, shuningdek, davlat xizmatlarini ko`rsatish sifatini oshirishda muhim omil hisoblanishini keltirib o`tgan» [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan S.U. Mexmonov o`z olib borgan tadqiqotlarida «Tashkilotning mulkchilik shakli, boshqaruvi va

faoliyati to`g`risida dastlabki ma'lumotlarni olish uchun auditdan o`tkazilishi kerak. Amaldagi buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining auditini o`tkazish to`g`risida qaror qabul qilishdan oldin tashkilotning ta'sis hujjatlari va buxgalteriya hujjatlari, shuningdek tashkilotning moliyaviy hisobotlari bilan tanishib chiqish kerakligi hamda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini ijobjiy baholashda auditorlik fikrining ob`ektivligi uchta omilga bog'liq: buxgalteriya hisobining to`g`rilingiga; nazorat tizimining ishonchliliga; auditorlik harakatlarining to`g`rilingiga» alohida ahamiyat qaratish kerakligini ta`kidlab o`tgan[4].

Boshqa bir mahalliy iqtisodchi olim A.A.Ostonokulov davlat sektorida moliyaviy hisobotlarni o`rganib «Budget hisobotining bir qator o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`lib, ular budgetni shakllantirish va davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg`armalarini ijro etish tamoyillari va boshqa bir qator omillar bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, O`zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to`g`risida»gi qonuniga muvofiq, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari sifatida ko`rsatkichlarning uzluksizligi, ishonchliligi va qiyoslanishi ta`kidlangan» deb izoh bergen [5].

Natijalar. Mazkur tadqiqotda davlat budgetidagi moliyaviy hisobotlarni takomillashtirishning ilmiy va amaliy jihatlarini o`rganish uchun turli xil tadqiqot usullari qo`llanildi. Tadqiqot dizayni ko`p qirrali bo`lib, u deskriptiv va empirik yondashuvlarni, sifat va miqdoriy tahlil usullarini o`z ichiga oladi. Ushbu usullar yordamida davlat budjeti hisobotlarining hozirgi holatini va ularni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish jarayonini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari ushbu tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlil usullaridan birgalikda foydalanildi. Miqdoriy tahlil yordamida davlat budgetidagi moliyaviy ko`rsatkichlarning


dinamikasi, ularning o'zgarishlari va xalqaro standartlarga o'tish natijalari tahlil qilindi.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish jarayonida bir qancha asosiy tamoyillar mavjud bo'lib, ular hisobotlarning sifatini oshirish va xalqaro talablarga javob beradigan shaffof moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan.

- Shaffoflik va ochiqlik
- Hisobdorlik
- Samaradorlik
- Xalqaro hamkorlik

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlikda tayyorlash orqali davlatlar o'rtaida moliyaviy axborotning taqqoslanishi va tushunilishi osonlashadi.

Xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy tamoyillari



1-rasm. Xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy tamoyillari¹.

Chizma yordamida ushbu tamoyillarning har biri uchun ularning ahamiyati vizual tarzda aks ettirildi. Grafik orqali shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari bu jarayonda eng muhim o'rin tutishi ko'rsatilgan.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida davlat sektori tashkilotlari bir qancha muammolarga duch keladi.

Texnologik cheklolvar

Ma'lumotlarning shaffofligi va aniqligi

Normativ va huquqiy cheklolvar

Tashkiliy jarayonlarning murakkabligi

¹ Mualif tomonidan tayyorlandi.



2-rasm. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonidagi muammolar²

Texnologik cheklovlar moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida eng katta to'siqlardan biri hisoblanadi. Davlat sektori tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi yetarli emas. Texnologik cheklovlar quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- Moliyaviy ma'lumotlarning to'g'ri va o'z vaqtida taqdim etilmasligi.

- Moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirishning yetishmasligi va bu orqali hisobotlarning sifati pasayishi.

- Axborot tizimlarining modernizatsiya qilinmaganligi sababli resurslar taqsimotida xatolarning yuzaga kelishi.

Quyidagi jadvalda texnologik cheklovlarining moliyaviy hisobotlarga ta'siri ko'rsatilgan.

1-jadval.

Texnologik cheklovlarining moliyaviy hisobotlarga ta'siri³.

Texnologik cheklov turi	Ta'siri
IT infratuzilmasining rivojlanmaganligi	Moliyaviy jarayonlarda xatolar va noto'g'ri ma'lumotlar
Moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish darajasining pastligi	Hisobotlarni shakllantirishda murakkablik va vaqt yo'qotilishi
Axborot texnologiyalari yetishmasligi	Hisobotlarning sifatini va aniqligini pasaytiradi

Ma'lumotlarning shaffofligi va aniqligi xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlikni ta'minlashda asosiy talablardan biridir. Davlat sektori tashkilotlarida shaffoflik darajasining pastligi, ba'zan ma'lumotlarning yetishmasligi yoki to'liq e'lon qilinmasligi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa moliyaviy hisobotlar sifatiga va ularning ishonchlilikiga salbiy ta'sir qiladi.

Shaffoflik va aniqlik darajasining pastligi quyidagi muammolarga olib keladi:

- Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi pasayadi, bu esa moliyaviy boshqaruva samaradorligini kamaytiradi.

- Moliyaviy axborotni jamoatchilikka taqdim qilishda cheklovlar mavjud bo'lib, bu davlat va jamoatchilik o'rtaсидаги ishonchga ta'sir qiladi.

2-jadval.

Shaffofligi va aniqligi past darajadagi ma'lumotlarning oqibatlari⁴.

Muammo turi	Oqibatlari
Ma'lumotlarning to'liq e'lon qilinmasligi	Moliyaviy boshqaruvning ishonchliliginini pasaytiradi

² Muallif tomonidan tayyorlandi.


³ Muallif tomonidan tayyorlandi.

⁴ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Ma'lumotlarning noto'g'ri taqdim etilishi	Resurslardan noto'g'ri foydalanish va xato qarorlar qabul qilinishi
---	---

Quyidagi chizmada ushbu muammolar grafik tarzda aks ettirilgan bo'lib, texnologik cheklovlar va ma'lumotlarning shaffofligi

darajasining pastligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatilgan.



3-rasm. Moliyaviy hisobotlarni solishtirish jarayonidagi muammolar⁵.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat sektori tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kuchaytirish, me'yoriy asoslarni mustahkamlash va moliyaviy boshqaruv tizimini soddalashtirish zarur.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini tatbiq etish borasida xorijiy tajribalar O'zbekiston va boshqa davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Qozog'iston

davlat sektori tashkilotlari xalqaro standartlarga o'tish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirdi va bu orqali moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini oshirdi. Rossiya tajribasida esa davlat va munitsipal sektor hisobotlari xalqaro standartlarga muvofiqligi orqali davlat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

3-jadval.

O'zbekiston, Rossiya va Qozog'iston davlat sektori tashkilotlarida xalqaro standartlarga o'tish jarayonidagi asosiy farqlar⁶.

Mamlakat	Moslashadirish darajasi	Asosiy o'zgarishlar	Natijalar
----------	-------------------------	---------------------	-----------

⁵ Muallif tomonidan tayyorlandi.

⁶ Muallif tomonidan tayyorlandi.



O'zbekiston	Boshlang'ich darajada	Malakali kadrlar tayyorlash	Moliyaviy hisobtlarning sifatini oshirish talab qilinmoqda
Qozog'iston	Yuqori darajada	Texnologik yangilanishlar	Moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va samaradorligi oshgan
Rossiya	Yuqori darajada	Hisobot tizimini avtomatlashtirish	Resurslar taqsimoti samaradorligi oshgan

Moliyaviy hisobtlarni xalqaro standartlarga moslashtirish davlat sektori tashkilotlari uchun bir qancha ijobiy natijalarga olib keladi. Ushbu natijalar quyidagilardan iborat:

- davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish-moliyaviy hisobtlarni xalqaro talablarga mos tayyorlash davlat resurslarining shaffof taqsimlanishini ta'minlaydi va jamoatchilikka bu haqda aniq ma'lumot beradi;

- moliyaviy resurslardan samarali foydalanish-xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan hisobtlar davlat sektori tashkilotlari uchun moliyaviy boshqaruv jarayonlarini yanada samarali qilish imkonini yaratadi va bu orqali moliyaviy resurslarning optimal taqsimlanishi ta'minlanadi;

- xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish-davlat sektori hisobtlarining xalqaro standartlarga muvofiqligi davlat va xalqaro moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi va moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Moliyaviy hisobtlarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlashda xorijiy

mamlakatlar o'ziga xos amaliyotlarni tatbiq etmoqda. Ular moliyaviy boshqaruvda samaradorlik va shaffoflikni ta'minlash uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS yoki IPSAS) amal qiladilar.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (IPSAS — xalqaro jamoatchilik sektori buxgalteriya standartlari). Yevropa Ittifoqi mamlakatlari davlat sektori tashkilotlari uchun IPSAS (Xalqaro Jamoatchilik Sektori Buxgalteriya Standartlari)dan foydalanadilar. IPSAS davlat sektori moliyaviy hisobtlari uchun xalqaro standartlarni belgilaydi va moliyaviy axborotning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Ushbu standartlar xalqaro moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish va davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Misol sifatida, Germaniya moliyaviy hisobtlar tayyorlashda IPSAS standartlarini keng tatbiq etgan. Germaniyada davlat tashkilotlari tomonidan tayyorlanadigan hisobtlar keng jamoatchilikka taqdim etiladi va bu orqali davlat moliyaviy boshqaruvi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

4-jadval.

IPSAS tamoyillari asosida tayyorlangan namunaviy moliyaviy hisobotlar⁷.

Hisobot qismi	Tavsif	IPSAS talablari

⁷ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Moliyaviy faoliyat hisobotlari	Hisobot davridagi daromadlar, xarajatlar va natijada paydo bo‘lgan ortiqcha yoki kamomadni ko‘rsatadi	Daromadlar va xarajatlar akkumulativ asosda e’tirof etilishi kerak, moliyaviy natijalarni aniq ko‘rsatish uchun
Moliyaviy holat hisobotlari	Hisobot davridagi aktivlar, majburiyatlar va sof aktivlar/kaptal bo‘yicha ma’lumot beradi	Aktivlar va majburiyatlar akkumulativ hisob asosida hisobot davrida mavjud qiymatga asoslanib hisobga olinadi
Pul oqimlari hisobotlari	Faoliyat, investitsion va moliyalashtirish faoliyatidan kelib chiqqan pul oqimlari bo‘yicha ma’lumot beradi	Pul oqimlari faoliyat turlariga ajratilib, to‘g‘ridan yoki bilvosita usulda e’tirof etiladi
Sof aktivlar / kapital o‘zgarishlari hisobotlari	Sof aktivlar yoki kapitaldagi o‘zgarishlarni, jumladan, ortiqcha/kamomadlarni va boshqa tuzatishlarni ko‘rsatadi	Sof aktivlar/kaptaldagi o‘zgarishlar, jumladan, ortiqcha/kamomad, qiymatni qayta baholash kabi o‘zgarishlar batafsil yoritilishi kerak

Ushbu jadval IPSAS tamoyillari asosida davlat sektori tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlarning tuzilishi va ularda talab qilinadigan ma’lumotlarni aks ettiradi. IPSAS hisob standartlari moliyaviy axborotning ishonchlilagini oshirish va jamoatchilikka to‘liq moliyaviy axborot berishni ta’minalashga qaratilgan.

Ilmiy yondashuv sifatida, xalqaro standartlarga asoslangan moliyaviy hisobotlar davlat moliyaviy boshqaruvining shaffofligini, taqqoslanishini va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni oshirish imkonini beradi. Bu davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yangiliklar davlat sektori tashkilotlarida moliyaviy boshqaruv jarayonini yaxshilashga imkon beradi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini tatbiq etish orqali davlat boshqaruvining samaradorligi va jamoatchilik uchun hisobdorligi oshadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda davlat sektori tashkilotlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish orqali xorijiy tajribalarni qo‘llash imkoniyatlarini aniqladi. Tadqiqot davomida davlat sektori tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash masalalari

tahlil qilindi. Moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali tayyorlash, ma’lumotlarni aniq va o‘z vaqtida to‘plash imkonini yaratadi. Ushbu tizimlar moliyaviy ma’lumotlarni nazorat qilishni, ularni qayta ishlashni va tahlil qilishni samarali qiladi. Bu amaliy yangilik davlat sektori tashkilotlarida moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

Raqamlashtirish orqali moliyaviy boshqaruvda xatolar soni kamayadi, natijada davlat mablag‘lari samarali boshqariladi va davlat resurslari tejab qolinadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali olingan natijalar davlat sektori moliyaviy faoliyatining shaffofligini oshiradi va hisobotlarning aniqligini ta’minalaydi.

Xulosa

1. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IPSAS) O‘zbekiston davlat sektori tashkilotlarida joriy etish zarur. Ushbu standartlarni joriy qilish orqali davlat moliyaviy hisobotlari xalqaro talablarga mos keladigan darajada aniqlik, shaffoflik va taqqoslanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini tatbiq etish jamoatchilik uchun axborotning to‘liq va ishonchli bo‘lishini ta’minalaydi. Buning uchun davlat sektori



tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash uchun xalqaro standartlarni huquqiy asosda tatbiq etish hamda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish uchun jamoatchilik sektori buxgalteriya standartlarini (IPSAS) belgilangan tamoyillari asosida keng joriy qilish maqsadga muvofiq.

2. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishning muhim. Davlat sektori tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish orqali hisobotlar tezkor, aniq va samarali tayyorlanadi. Bu davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

3. Moliyaviy hisobotlar orqali davlat sektori tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat haqida keng jamoatchilikka ma'lumot berish davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlaydi. Bu jamoatchilikning davlat boshqaruviga ishonchini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ma'lumotlarning dolzarbligi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash uchun jarayonlarni qat'iy nazorat qilish hamda hisobotlarni keng jamoatchilikka taqdim qilish uchun axborot resurslari va ochiq platformalardan foydalanish,

bu orqali jamoatchilik ishtirokini oshirish taklif etiladi.

4. Xalqaro moliyaviy standartlarni tatbiq qilish orqali davlat sektori moliyaviy hisobotlari xalqaro talablarga mos keladigan darajada tuzilganligi sababli xorijiy moliyaviy tashkilotlar va investorlarga ishonchli muhit yaratadi. Bu O'zbekiston davlat sektori uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlarni tuzib taqdim etishni joriy qilish hamda davlat sektori moliyaviy boshqaruvi jarayonlarida xalqaro kredit tashkilotlari bilan ishonchli hamkorlikni rivojlantirish va o'zaro manfaatli munosabatlar o'matish mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslangan tavsiyalar O'zbekiston davlat sektori moliyaviy boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish, avtomatlashtirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu takliflar davlat boshqaruvi tizimini samarali va shaffof qilish, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, davlat resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida." O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-100, 10 iyul 2024 yil, lex.uz/acts/-5607471.
2. Kupina V.V. va Manichkina M.V. (2023) «Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kiruvchi tashkilotlarning moliyaviy holatini tahlil qilish masalalari» Surgut davlat Universiteti ilmiy jurnali. 2023. Vol. 11, No. 3. 44-52 b.
3. Chertkova A.V. (2021) «Davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro davlat sektori standartlariga muvofiq isloh qilish xususiyatlari» Audit journal. 2021;(4): 39-48 b.



4. Mexmonov S.U. (2022). «Budget tashkilotlarida ichki audit hisobotlari va tavsiyalarini shakllantirish». Open Access Repository, 8 (12), 469-472 p.
5. Ostonokulov A.A. (2023). «Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobtlarni tuzish va taqdim etishning amaliy jihatlari». Educational Research in Universal Sciences 2.3 (05.2023): 180-188 b.